

TALABA YOSHLARDA BADIY-ESTETIK VA MA'NAVIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING TUTGAN O'RNI

Muqaddas Mo'minova,
A.Qodiriy nomidagi JDPI,
Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa san'ati talaba shaxsining badiy-estetik va ma'naviy kamolotini shakllantirishda buyuk ajdodlarimizning ulkan tarbiyaviy-ta'sirchanlik xususiyatlari haqidagi qarashlari, ilmiy asoslangan fikr-mulohazalari asoslangan holda bugungi kunda ulardan yosh avlod ma'naviy kamolotida foydalanish holati, muammo va imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu o'rinda ta'lim va tarbiya jarayoniga tadbiiq etishda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beruvchi ilmiy asosli tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: xalq musiqa merosi, milliy g'oya, mafkura, ta'lim, tarbiya, shaxs ma'naviy kamolot, umumta'lim maktablari, dars va darsdan tashqari faoliyat, pedagogik talab va mezon.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarining vazifasi jamiyat uchun nafaqat bilimli, malakali mutaxassislarni, balki shu bilan birga ma'naviy va axloqiy barkamol avlodning tarbiyasi uchun mas'ul pedagog-murabbiylarni yetishtirishdan iboratdir. Bunday mas'uliyatli maqsadni amalga oshirishda oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan fanlarning o'zi yetarli emas. Talabalarni har tomonlama yetuk ziyoli, madaniyatli va yuksak ma'naviyatli tarbiyachilar bo'lib yetishishlari, ularni insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklardan, san'at asarlaridan iloji boricha keng bahramand bo'lishlarini taqozo etadi. O'tmishda yashab o'tgan ulug' ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Muso Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad

Yugnakiy, Al Buxoriy, At Termiziy, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi allomalarning ilmiy va ma‘naviy merosidan yoshlarni keng bahramand qilib borish, shuningdek yaqin o‘tmishda yashab ijod qilgan Abdulrauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabilarning ta‘lim-tarbiyaga oid asarlarini, ularda ilgari surilgan g‘oyalar, pedagogik fikr va qarashlarni zamonaviy ta‘lim-tarbiya mazmuniga bog‘lash natijasida yaxshi samaraga erishish mumkin.

Tarixiy va ilmiy manbalarni o‘rganish, tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki nomlari zikr etilgan buyuk siymolar o‘zlarining ilmiy va pedagogik qarashlarida shaxs kamolotida musiqa san‘atining keng imkoniyatlarga ega ekanligini etirof etganlar, ko‘pchiligi esa bevosita musiqaga oid maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishgan, musiqa bilan shug‘illanib, uning nazariy, amaliy va tarbiyaviy asoslari to‘g‘risida ko‘plab risola va traktatlar yozganlar. Chunonchi, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi ro‘yxatida uning musiqa sohasiga oid bir qancha asarlarini ko‘ramiz. “Musiqa haqida katta kitob”, “Ohanglar tasnifi haqida kitob”, “Musiqa haqida so‘z”, “Ohangga qo‘shimcha qilingan so‘z” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Bizga ma‘limki, pedagogika oily o‘quv yurtlarida asosan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik-litsey, kasb-hunar kollejlari, maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun mutaxassis o‘qituvchi-murabbiylar tayyorlanadi. Bugungi talabalar ertangi tarbiyachi-murabbiylardir. Shuning uchun ham bu dargohlarda faoliyat ko‘rsatuvchi fan o‘qituvchilari o‘z sohasi bo‘yicha talabalarga ta‘lim-tarbiya berar ekan, tarbiyaning barcha qismlari qatori estetik tarbiyaga ham eng mas‘uliyatli vazifa sifatida qarashlari kerak bo‘ladi. Zero, Prezidentimiz I. Karimov haqli ravishda ta‘kidlaganlaridek: “Bugungi kundagi ta‘lim va tarbiyani musiqa san‘atisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta, bu maqsadga musiqa san‘atisiz erishib bo‘lmaydi”.

Kuzatuvlarimizda shu narsa aniq bo‘ldiki, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida talabalarni estetik tarbiyalash borasida o‘ziga yarasha muammolar bilan birga keng imkoniyatlar ham mavjud. Ayniqsa, musiqa san‘atiga doir to‘garaklar, badiiy

ijodga qiziquvchi yoshlarni o'z atrofiga uyushtirgan havaskorlik dastalari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda juda kam bo'lsa-da, oliy o'quv yurtlarida ashula, raqs, milliy cholg'u sozlarini o'rganish, milliy cholg'u, vakal cholg'u dastalari, xor ijrochiligi, drama, raqs, maqomchilar ansambli kabi to'garaklar faoliyat ko'rsatayotgani shundan dalolat beradi. Talabalar o'qishdan keyingi paytlarda ana shunday to'garaklarga qatnashadilar. Bu jarayonda estetik tarbiya musiqa san'atining turli ko'rinishlari bilan uyg'unlashib, talaba-yoshlarning badiiy-estetik va o'z o'rnida g'oyaviy, ma'naviy tarbiyasiga samarali ta'sirini o'tkazadi. Bu hol mashg'ulotlar jarayonida yanada samarali zohir bo'ladi, fanlarni o'zlashtirish, ularning o'zaro aloqadorligini taminlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy havaskorlik to'garaklaridagi mashg'ulotlar yoshlarni go'zallikka, atrof va voqelikni estetik qonuniyatlarni asosida tushunish, baholash, va ularga nisbatan xayrixohlik tuyg'usini o'stiradi.

Bu o'z navbatida estetik didlar bahsiga olib keladi. Bahs esa rivojlanishning o'ziga yarasha qonunidir.

Milliy nafosat va milliy axloq, milliy etika o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqida naqadar salmoqli o'ringa ega bo'lganligi bois, estetik va axloqiy tarbiya ham yoshlarning ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlarida bebaho vositalardir. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida badiiy havaskorlik to'garaklariga munosabatni tubdan o'zgartirish, ularda talaba yoshlarni imkon qadar keng, kerak bo'lsa ommaviy holda jalb qilish choralarini ko'rish, musiqa va san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha tizimli mashg'ulotlar jarayonida ularning madaniy, ma'naviy va estetik kamolotini shakllantirish, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda samarali pedagogik uslublardan foydalanib ish tutish lozim bo'ladi. Bu o'rinda bizning nazarimizda eng avvalo oliy pedagogik ta'lim tizimidagi badiiy havaskorlik to'garaklari bilan madaniyat muassasalari taniqli xonandalar, sozandalar va bastakorlar bilan o'zaro ijodiy aloqasini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov musiqa san'ati haqida shunday yozadi: "Hozirgi kunda musiqa san'ati boshqa san'at turlariga qaraganda yoshlar tarbiyasiga ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda". Haqiqatdan ham hozirgi kunda san'at bilan, xususan musiqa san'ati bilan har kuni muloqotda bo'lmaydigan kishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunda radio, televideniya va boshqa vositalarning benazir xizmati cheksizdir. Lekin, musiqani shunchaki tinglash bilan uni ma'lum tizimda rejalashtirilgan izchil mashg'ulotlar jarayonida tinglab, ijro etib, u haqidagi kerakli ma'lumotlar (asar mavzusi, janri, g'oyaviy badiiy mazmuni, ijro uslubi, an'analari, qanday holat, vaziyatlarda ijro etilishi, mualliflari, yaratilgan davri, badiiylilik xususiyatlari, mohir ijrochilari va hokazo) bilan tanishib borish o'rtasida juda katta farq bor. Musiqa inson ma'naviy dunyosiga, badiiy-estetik didi va ehtiyojlarini o'sishiga bir xil bo'lmasa-da ko'tarinki ta'sir etadi. Ana shu ijobiy ta'sir to'garak va dastalarning qatnashchilarida oddiy tinglovchilardagiga nisbatan bir necha barobar kuchliroq va samaraliroq kechadi. Chunki, to'garak va dastalarning qatnashchilari ijodiy jarayonda faol ishtirok etadilar, badiiy obrazlar, musiqani ifodaviy xususiyatlari jozibasini ichki tuyg'ulari bilan juda yaqin muloqot va munosabatda his etadilar. Ular bilan musiqaning badiiylilik xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyatini anglash, badiiy emotsional tushunish borasida maxsus ishlar olib boriladi. Musiqa san'atining, xususan xalq musiqa merosining talabalar ongi, irodasi, sezgisi, tafakkuri, hissiy, musiqiy idrokiga ta'siri murakkab psixologik jarayon bo'lib, buni o'rganilayotgan yoki tinglanayotgan musiqa asarining kuyi, matni, ijroning badiiy mahorati bilan izohlash mumkin.

Masalan, Alisher Navoiy g'azali bilan "Munajat" kuyga solib aytiladigan "Ul sarvi gulru kelmadi" asarini qarab ko'raylik. Ushbu ashulaning kuyida ashula matnining chuqur lirik va g'amginligi aks etadi. Bu ohangdor, hazin ifodali kuyda ko'rinadi. Kuyning sokin, bir maromdagi ijrosi asta-sekin kuchli hissiy hayajonlanish tomonga rivojlana boradi. Asar kuyida xalq musiqasining betakrorligi, shu bilan birga ashula matnining g'oyaviy mazmuniga g'oyat moyilligi namoyon bo'lib, tinglovchini sehlab oladi.

She'riy asar sifatida ashulaning matni va ritmikasi kuyga tarkiban ravishda uyg'unlashadi, kuyning badiiy bezalishi ham (nola, qochirim, milliy bo'yoqlar) asarning estetik ahamiyati va ta'sirini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni haqida mutaxassislarning tahliliy suhbatlari asarning estetik va tarbiyaviy qimmatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy havaskorlik to'garaklarida mana shu jihatlar e'tiborga olinishi natijasida xalq qo'shiq va kuylari, xususan, mumtoz va maqom namunalariga yoshlarda ongli munosabat, ularning mazmuni, mohiyati, badiiy qimmatini anglash, qadrlash shakllanadi. Shuning uchun ham musiqa san'atiga doir badiiy havaskorlik to'garaklarida talaba-yoshlarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlari bilan birga musiqiy didi, estetik dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bularning barchasi pedagogik muammo sifatida kompleks tarzda yo'lga qo'yilgandagina kutilgan natija beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanov A.. Musiqa va tarbiya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Fayzullayev E. O'zbek mumtoz musiqasi talabalarning badiiy didini shakllantirish omili. – Toshkent: Ta'lim va texnologiyalar markazi nashriyoti, 2010.
4. I.Qudratov, E.Abdukarimova. "Musiqa ta'limida fanlararo aloqadorlik". Uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU bosmaxonasi, 2015yil.
5. E.Abdukarimova. "Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classicall music" European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 6, 2019 ISSN 2056-5852
6. E.Abdukarimova. Ilim ham jamiyet ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X

7. Elnoza Ismatillayevna Abdukarimova Актуальные вызовы современной науки. “Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi” iscience 2017 йилги
8. 2. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil.
9. O’zbek xalq musiqasi. To’plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. – T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.567b.
- 10.Hamidov H. O’zbek an’anviy qo’shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O’qituvchi, 1996y.